

**O'ZBEKISTON SHAROITIDA TOVAR BALIQLARNI YETISHTIRISHDA
HOVUZ BALIQCHILIK XO'JALIGINING AHAMIYATI**

Baxodir Jumaboyev

Ilmiy rahbar: Navoiy davlat pedagogika instituti
biologiya kafedrasи dotsenti, biologiya fanlari nomzodi.

Abdusalomova Maftuna Sheraliyevna

Navoiy davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlarni
õqitish metodikasi (biologiya) 2-bosqich magistranti.

Annotatsiya: Berilgan maqolada O'zbekiston sharoitida tovar baliqlarni yetishtirishda hovuz baliqchilik xo'jaligining ahamiyati to'g'risida bayon qilingan. Hovuz baliqchilik xo'jaliklarida boqiladigan baliq mahsuldorligini ma'lum darajada oshirishda mineral o'g'itlarning o'rni. Xususan hovuz baliqchilik xo'jaligining asosiy obyekti Karp misolida yoritildi.

Kalit so'zlar: hovuz baliqchilik, mo'ylovli klariya, oq-qorinli yolg'on ilon baliq, karp va mineral o'g'itlar.

Аннотация: В данной статье описывается значение прудового рыболовства в выращивании промысловой рыбы в условиях Узбекистана. Роль минеральных удобрений в повышении продуктивности рыб, выращиваемых в прудовых хозяйствах. В частности, на примере карпа был освещен основной объект прудового рыболовства.

Ключевые слова: прудовое рыболовство, клария усатая, белобрюхий ложноугорь, сазан и минеральные удобрения.

Annotation: The given article describes the importance of pond fisheries in the cultivation of commercial fish in the conditions of Uzbekistan. The role of mineral fertilizers in increasing the productivity of fish reared in pond fisheries. In particular, the main object of the pond fishery was covered by the example of carp.

Keywords: pond fishing, whiskered claria, white-bellied false eel, carp and mineral fertilizers.

Mamlakatimizda, ayniqsa, hovuz baliqchiligin rivojlantirishning katta imkoniyatlari bor. Shahar chetida yashaydigan dehqonlarni ko'pchiligi o'zini hovlisida betonlangan, odatda 100 m^2 gacha hovuzlar quradi va ularda qimmatbaho baliq turlari mo'ylovli klariya, oq-qorinli yolg'on ilon baliq va boshqa baliq turlari yetishtiriladi. Baliqlarni boqish va saqlash qiyin bo'limganligi sababli, ulardan bir yilda bir necha marta mahsulot olish mumkin. Xonardonlar shaharga yaqin joylashganligi sababli yetishtirilgan baliq mahsulotlarini shahar bozorlariga yetkazib berishadi.

Hovuz qurishga imkon bo'limgan dehqonlar hovlisiga temirli yoki plasmassali

kichik basseynlar o'rnatib, ularda qimmatbaho dekorativ baliqlarni ko'paytirib sotishni yo'lga qo'ygan.

Tabiiy suv havzalaridan foydalanib baliq yetishtirish usuli. Bugungi kunda fermer xo'jaliklari bosqichma-bosqich o'rtalarda yirik suv havzalaridan foydalanishga harakat qilishmoqda. Xitoyda hovuzlarda baliq yetishtirishning mahsuldorligi yuqori bo'lsada, biroq qishloq xo'jaligini rivojlanishi sababli va bo'sh yerkarni ishlab chiqarishda foydalanishga olinishi natijasida, baliqchilik uchun yangi suv havzalarini ochish sharoitlari cheklangan. Shu bois mavjud bo'lgan katta va o'rtalarda tabiiy suv havzalaridan intensiv foydalanish hisobiga ushbu muammoni hal qilish mumkin

Hovuz baliqchilik xo'jaliklarida boqiladigan baliq mahsuldorligini ma'lum darajada oshirishda mineral o'g'itlarning o'rni juda muhim hisoblanadi. Ilmiy asoslangan usulda yuqori baliq maxsuldarlikka erishishning samarali yo'li — bu yangi hovuzni me'yoriga muvofiq kerakli o'g'itlar bilan o'z vaqtida o'g'itlashdan iboratdir. Baliq boqadigan baliqchilarimizga ma'lumki, baliqchilikda ikki xil o'g'it ishlatiladi. Mineral o'g'itlar — fosforli, azotli, kalsiyli, kalsiyli va boshqa xildagi o'g'itlar hisoblanadi. Baliqchilar, baliq boqish uchun hovuzlarga asosan azotli -fosforli o'g'itlardan foydalanadilar.

Karp hovuz baliqchilik xo'jaligining asosiy obyekti hisoblanadi. Xonaki karp, zog'oraning seleksiya yo'li orqali tanlab xonakilashtirilib chiqarilgan. Karp boshqacha aytganda xonakilashtirilgan ko'l zog'orasi hisoblanadi. Shu munosabat bilan karp biologiyasi ko'l yoki yovvoyi zog'ora zotidan unchalik farq qilmaydi. Bu zotlarning har ikkalasi issiqsevar zotlar bo'lib hisoblanadi. Ularning normal o'sish va rivojlanishi uchun hamda oziqlanishi uchun optimal suv harorati 20 dan to 28°C gacha bo'lishi kerak. Hovuz baliqchilik xo'jaliklarida ikki yozgi yoki ikki yashar zotlari 400-600 grammgacha yetadi.

Oq amurning serpushtligi 800 ming uvildiriq, lekin asosan serpushtlik turining yoshi va og'irligi bilan chambarchas bog'liq. Oq amur o'z vatanida aprel—avgustgacha uvildiriq qo'yadi, asosan uvildiriqni, kuchli oqim va kuchli girdobda tashlaydi. Uvildiriqlar unchalik yopishqoq emas, pelagik bo'ladi. Inkubatsiya muallaq holatda, suv bag'rida o'tadi, suv harorati 26—30°C bo'lganda 32—4 soat davomida o'tadi. Uvildiriqlar kattaligi 5-6 mm gacha shishadi. Hovuz, ko'l yoki to'xtagan suvda ko'paymaydi. Shuning uchun ham inkubatsion sex sharoitida chavoq olinib ko'paytiriladi. Oq amur chavoqlari ham boshqa baliq chavoqlari singari boshlang'ich rivojlanish bosqichlarida zooplankton bilan oziqlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Husanov S.Q. va boshqalar. Baliqchilik asoslari . B.: "Buxoro" nashriyoti.2010.- B.294
2. E.Kenjayev, K.I.Sirojiddinov. "Baliqchilik iqtisodiyoti" fanidan o'quv –uslubiy majmua. Namangan- 2021, 291 - bet
3. Internet ma'lumotlar: www Agro olam.uz.